

MUSIQA



Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



TOSHKENT – 2021

UO'K 78(075.3)
KBK 74.268.53
N 25

Mualliflar:
**Nadim Norxo'jayev, Shoxista Norxo'jayeva,
Dilnoza Toshmuhamedova**

Taqrizchilar:

- M. Axmedov** – O'zbekiston davlat konservatoriysi musiqa pedagogikasi kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
- Z. Xodjaeva** – Andijon davlat universiteti musiqiy ta'lim kafedrasи katta o'qituvchisi.
- Z. Zakirova** – Toshkent shahridagi 17-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining musiqa madaniyati fani o'qituvchisi.
- T. Eshto'rayev** – Surxondaryo viloyat Muzrabot tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabining musiqa madaniyati fani o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR:



– tinglaymiz



– kuylaymiz



– musiqa savodi



– mashq daftaringizda
bajaring



– musiqa ijodkorligi



– dars yakuni



?! – mustahkamlash uchun topshiriq

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi
mablag'lari hisobidan chop etildi.

Original mакет va dizayn konsepsiya
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.

MUNDARIJA

Qadrli o'quvchilar!	5
---------------------	---

1-BOB. KUY

Vatanimizni madh etamiz.....	6
"O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi".	
A. Oripov she'ri, M. Burhonov musiqasi	7
"Aziz bo'ston – O'zbekiston".	
S. Mirzo she'ri, D. Omonullayeva musiqasi	8
Takrorlash	9
Kuy	10
"Maktabim". I. Muslimov she'ri, F. Nazarov musiqasi	11
Takrorlash	13
Chorak nota	14
"Farg'onacha". O'zbek xalq kuyi.....	15
"Boboq xo'roz". P. Mo'min she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi	16
Qo'shiq	18
"G'ildiragim". T. Bahromov she'ri, Sh. Yormatov musiqasi.....	18
"O'ynaylik". A. Rahmat she'ri, II. Akbarov musiqasi	19
Milliy cholg'ular. Nay	21
"Quvnoq sayr". N. Norxo'jayev musiqasi	22
Tanbur.....	24
G'iijak.....	25
"Kayfiyat". N. Norxo'jayev musiqasi	26
"Uzum". P. Mo'min she'ri, D. Omonullayeva musiqasi.....	27
Nimchorak nota	28

2-BOB. YAKKANAVOZLIK VA JO'RNAVOZLIK

Yakknavozlik.....	30
"Asp bo'laman". O'zbek xalq kuyi.....	31
"Qizaloq". T. Nazarov she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi	32
Qomusimsan – faxrimsan.....	34
"Chamanda gul". O'zbek xalq kuyi	35
"Qadim Turon". P. Mo'min she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi.....	36
Jo'rnavozlik.....	38
"Yomg'ir". T. Ubaydullo she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi	39
Xonandalik va sozandalik	41
"Dangasa".	
M. Tojiboyev "Dugoh" maqomi ohanglari asosida yaratgan	42

“Archa bayrami”. A. Rahmat she’ri, I. Akbarov musiqasi	43
Notalarning guruhlanishi.....	44
Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.....	45

3-BOB. MUSIQA SAVODIGA SAYOHAT

Takt va takt chizig‘i.....	47
“Ot o‘yini”. D. Omonullayeva musiqasi	48
“Bobom – qahramon”. A. Haydarov she’ri va musiqasi	49
O‘lchov.....	50
Sanashni o‘rganamiz	51
“Qashqarcha”. O‘zbek xalq kuyi	52
“Uxlab turdim”. I. Muslim she’ri, F. Nazarov musiqasi.....	53
Repriza	54
“Vals”. P. Chaykovskiy musiqasi, “Bolalar albomi”dan.....	55
“Navro‘zim – sho‘x sozim”.	
H. Rahmat she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi	56
Lad: major va minor.....	57
“Toreador marshi”. J. Bize musiqasi	59
“Zag‘izg‘on”. P. Mo‘min she’ri, D. Omonullayeva musiqasi.....	60
Musiqali rebuslar	61
“Yugurish”. S. Abramova musiqasi	62
“Ismaloq”. P. Mo‘min she’ri, D. Omonullayeva musiqasi.....	63

4-BOB. BOLALAR BASTAKOR VA KOMPOZITORLARI

Bastakor Shermat Yormatov.....	64
“O‘ynadik, hech to‘ymadik”.	
P. Mo‘min she’ri, Sh. Yormatov musiqasi	65
“Sog‘lom avlod qo‘shtig‘i”.	
T. Bahromov she’ri, Sh. Yormatov musiqasi	66
Kompozitor Nadim Norxo‘jayev	67
“Chinnigul”. Qambar Ota she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi	68
“Hakkalar”. N. Orifjonov she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi	69
Kompozitor Dilorom Omonullayeva	71
“Qo‘g‘irchoqlar bilan raqs”. D. Omonullayeva musiqasi.....	72
“Buvijon”. Y. Suyunov she’ri, D. Omonullayeva musiqasi.....	73
Musiqa ijodkorlari.....	74
“Kapalak va kamalak”.	
N. Narzullayev she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi	75
“Handalak”. P. Mo‘min she’ri, D. Omonullayeva musiqasi	76
Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.....	77

QADRLI O'QUVCHILAR!

Musiqaning sehrli olamiga sayohatimiz davom etadi. Bu o'quv yilida sizni ko'plab yangi va qiziqarli ma'lumotlar kutib turibdi. Siz kuy, qo'shiq nima ekanini bilib olasiz, chorak va nimchorak notalar, musiqiy o'Ichovlar haqida tushunchaga ega bo'lasiz. Tanbur, g'ijjak kabi milliy cholg'ularimiz jarangidan bahra olasiz. Bir qator musiqiy atamalar bilan tanishasiz va musiqani yaxshiroq tushuna boshlaysiz.

Ona Vatanimiz, go'zal tabiatimiz, do'stlik va tinchlik haqidagi ko'plab kuy va qo'shiqlarni tinglaysiz, kuylab o'rganasiz, ularga jo'r bo'lasiz. Bundan tashqari, fikrlash, o'ylab topish, ijod qilishga qaratilgan topshiriqlarni bajarasiz.

1–2-darslar

1-BOB
KUY**VATANIMIZNI MADH ETAMIZ**

Madhiya – davlat ramzlaridan biri. Jonajon O'zbekistonimizning ham o'z madhiyasi bor. Untik turgan va o'ng qo'llimizni ko'ksimizga qo'ygan holda ijro etamiz.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI



A. Oripov she'ri

M. Burhonov musiqasi

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

N a q a r o t:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!


Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!

N a q a r o t:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!



O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi sizga qanday ta'sir qilgani, madhiyamiz qayerlarda va qanday tadbirlarda ijro etilishi to'g'risida so'zlab bering.





AZIZ BO'STON – O'ZBEKISTON

S. Mirzo she'ri

D. Omonullayeva musiqasi

Bu dunyoda chamanlar ko'p,
Bu dunyoda vatanlar ko'p.
Barchasida yashnar gullar,
Barchasida yayrar dillar.

N a q a r o t:

Mening uchun aziz bo'ston –
O'zbekiston, O'zbekiston.

Chorlar ezgu yo'llar meni,
Ajdodlarim qo'llar meni.
Bu Vatanda to'kmasman yosh,
Bu Vatanda egmasman bosh.

N a q a r o t:

Mening uchun aziz bo'ston –
O'zbekiston, O'zbekiston.



Qo'shiq kayfiyatini ifodalab bering. Jonajon O'zbekistonimiz
haqida yana qanday qo'shiqlarni bilasiz?




Bu dun - yo - da cha - ma - (a)n - la- (a)r ko'p




TAKRORLASH

NOTA YO'LI. NOTALARING YOZILISHI VA NOMLANISHI

Musiqa tovushlari nota bilan yoziladi. Notalar yoziladigan beshta chiziqqa NOTA YO'LI deyiladi.



Nota yo'lining boshiga SKRIPKA KALITI qo'yiladi.




SKRIPKA KALITIning aylana qismi nota yo'lining ikkinchi chizig'ini o'rab olgani va shu chiziqda sol notasi yozilgani bois bu kalit SOL KALITI deb ham ataladi.



Sol notasi



Musiqada yettita nota bo'lib, ular nota yo'lining beshta chizig'iga joylashadi va quyidagicha nomlanadi:



3-dars

KUY

Kuy har qanday musiqaning asosidir. U turli balandlik va uzunlikdagi tovushlarning yig'indisidan hosil bo'ladi. Ohangdorlik kuyning asosiy xususiyatidir. Kuylar biror-bir cholg'u yoki ovozda ijro etiladi. Musiqada qo'shiq, raqs kuylari bor. Kuy yuqoriga, pastga tomon rivojlanishi mumkin.

QARI NAVO**DO'LONCHA****NEVARALAR QO'SHIG'I****OQ LOLALAR**

M. Leviyev musiqasi
“Mahallada duv-duv gap” kinofilmidan



МАКТАВИМ

I. Muslimov she'ri

Ona kabi mehribon,
Ilm-fanlarga makon.
Yayrab o'qiymان har on,
Qadrdonim, maktabim!

Senda fanlar xilma-xil,
Ongim o'sar yilma-yil.
Sevinchlarga to'lar dil,
Qadrdonim, maktabim!

F. Nazarov musiqasi

Men dunyoda baxtiyor,
Hech chekmayman alam-zor,
Vatanim – mangu gulzor,
Qadrdonim, maktabim!


A'lо o'qishdir burchim,
Sarf etarman bor kuchim.
Ishlayman xalqim uchun,
Qadrdonim, maktabim!





O - na ka - bi meh - ri - bon, i- l(i)m, fan -lar- ga ma- kon.

Agar kuy harakatlanmaganida, uni qanday ijro etgan bo'lardik?



O - na ka - bi meh - ri - bon, i- l(i)m, fan -lar- ga ma- kon.

Qo'shiqning nota matniga qarab kuy qanday rivojlanganini aytib bering va uning harakatini ifodalang.

"Maktabim" qo'shig'ini cholg'u jo'rligida ifodali kuylang.

O - na ka - bi meh - ri - bon, i- l(i)m, fan-lar-ga ma- kon.

Qo'shiqning nota matnini yuqoridagi doirachalar bilan taqqoslang.



TAKRORLASH



BUTUN NOTA




Bilsang, butun notaman,
Har notadan kattaman.
Meni sanab “4 i” ga,
Keyin davom etasan.

YARIM NOTA



Men butunning yarmiman,
Yarimtalik notaman.
Sana meni “2 i” ga,
Bir quvonib ketaman.



$$\circ = \begin{matrix} \text{ } \\ \text{ } \end{matrix} + \begin{matrix} \text{ } \\ \text{ } \end{matrix}$$



4–5-darslar

CHORAK NOTA

Bilsang, chorak notaman,
 Har qalay, kichkinaman.
 Qora xolday nuqtaman,
 Butun notada to'rttaman.



FARG'ONACHA



O'zbek xalq kuyi



Kuyning nota matnidan yarim va chorak notalarni
toping.



BOBOQ XO'ROZ



P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

Naqarot:

Boboq xo'roz, boboq xo'roz,
Toji qizil taroq xo'roz.

Dumi gajak, yurar sergak,
Xo'p kelishgan, bo'yи daroz,
Boboq xo'roz.

Naqarot.

Tumshuq artib saqlar tartib,
Qomatini tutadi g'oz,
Boboq xo'roz.

Naqarot.

Aybin lekin, aytay sekin:
Sal urishqoq, chatoq biroz,
Boboq xo'roz.



Naqarot.

Odamlarni, beg'amlarni
Uyg'otishi judayam soz,
Boboq xo'roz.






Bo- boq xo'- roz, bo- boq xo'- roz, to- ji qi- zil ta-roq xo'- roz

D O



RE



$$\bullet = \text{♩} + \text{♩} = \text{♪} + \text{♪} + \text{♪} + \text{♪} + \text{♪}$$

6-dars

QO'SHIQ

Qo'shiq she'riy matn va kuydan tashkil topadi. Cholg'u sozlari jo'rligida, ba'zan ular jo'rligisiz ijro etiladi. Qo'shiq bir yoki bir nechta ijrochilar tomonidan aytilishi mumkin.



G'ILDIRAGIM

T. Bahromov she'ri

Sh. Yormatov musiqa

Naqarot:

G'ildiragim, g'ildiragim,
Tezroq, tezroq pildiragin.

Ikkalamiz o'ynab-o'ynab,
Yuguraylik yo'lka bo'ylab.

Nagarot.

Uyga tomon ketaylik tez,
Eson-omon yetaylik tez.

Nagarot.

O'yinni men bas qilayin,
Damingni ol. dars qilavin.

Nagarot.



G'il-di-ra-gim, g'il-di-ra-gi -i - im, tezroq, tezroq pil- di- ra - gin.

O'YNAYLIK



A. Rahmat she'ri

II. Akbarov musiqasi



Do, re, mi, fa, sol, sol, sol
 Deb chertaman torimni,
 Soz bo'lganda jaranglab
 Kuyga solar barini.

Ulug' Vatan sha'niga
 To'qiladi kuylarim.
 Dutorim-la avj olar
 Mening shirin o'ylarim.





Do, re, mi, fa, sol, sol, sol deb cher- ta- man to- rim- ni.




Do, re, mi, fa, sol, sol, sol deb cher-ta-man to-rim - ni.

? Qo'shiqning doirachalar shaklidagi tovushlari uzun-qisqaligini nota matni bilan taqqoslang.

M I



F A




$$O = \text{ } + \text{ } + \text{ } + ?$$




MILLIY CHOLG'ULAR

NAY

Nay – qamish va o'rik daraxtidan yasaladigan damli cholg'u. U asosan yonlamasiga ushlab chalinadi. Uning 6 ta asosiy, 2 ta tepa (orqa tarafida) va 1 ta pastda yordamchi teshikchalari bor. Nay damli o'zbek xalq cholg'ularidan biridir.




Nay cholg'usining tuzilishi haqida aytib bering. Nay ovozini tembridan farqlang.




QUVNOQ SAYR

N. Norxo'jayev musiqasi




SOL



A yellow cartoon character with a smiling face, large eyes, and rosy cheeks, standing next to a musical staff with a treble clef. The staff has seven black note heads on five horizontal lines.

LYA




A yellow cartoon character with a surprised or thinking expression, looking upwards, standing next to a musical staff with a treble clef. The staff has seven black note heads on five horizontal lines.

SI




A yellow cartoon character with a surprised or excited expression, with hands raised, standing next to a musical staff with a treble clef. The staff has seven black note heads on five horizontal lines.



8–9-darslar


TANBUR

Tanbur – qadimiy tirnama o‘zbek xalq cholg‘usi. Tuttan yasaladi, barmoqlarga kiyilgan maxsus moslama – noxun yordamida tovush hosil qilinadi.




G'IJJAK


G'ijjak – qadimiy o‘zbek xalq cholg‘ularidan biri bo‘lib, kamoncha bilan chalinadi.



KAYFIYAT

N. Norxo'jayev musiqasi





UZUM

*P. Mo'min she'ri
D. Omonullayeva musiqasi*



Uzum pishdi,
Uzum pishdi,
Ishkomlarga
Ko'zim tushdi.

Hosili mo'l –
Bosh-bosh uzum.
Boqqan sari,
To'yar ko'zim.

Oftobdan nur
Simirganlar.
Yetilganlar,
Semirganlar.



Bobom bilan
Bog' oralab
Uzum uzdik
Xo'p saralab.




Uzum pishdi, uzum pishdi, ish-kom-lar-ga ko'zim tushdi.

NIMCHORAK NOTA



Meni derlar “nimchorak”,
Bayroqcham bundan darak.
Qay asarda uchrasam,
Meni tez kuylash kerak.



D O



R E



1-dars

2-BOB

YAKKANAVOZLIK VA JO'RNAVOZLIK**YAKKANAVOZLIK**

Rasmdagi sozandaga qarang. U cholg'uda musiqiy asarni yakka o'zi ijro etyapti. Yakka holda ijro etish – **yakkanavozlik** deyiladi.





ASP BO'LAMAN

O'zbek xalq kuyi



Kuy harakatini mashq daftaringizda aks ettiring.

QIZALOQ**T. Nazarov she'ri****N. Norxo'jayev musiqasi**

Yal-yal yonar yuzlaring
Misli lolaqizg'aldoq.
Yayrab, yayrab kulishing
Buncha shirin, qizaloq.

Oh, qizaloq, qizaloq,
Ikki ko'zi ko'zmunchoq.
Qiliqlaring chiroyli,
Lo'ppi yuzli bo'paloq.






— — — | — — — — —
Yal - yal yo - nar yuz- la- (a)- ring mis-

— — — | — — — —
li lo - la qiz - g'al - doq.






Yal - yal yo - nar yuz - la - (a) - ring misli lo - la qiz - g'al - doq.

M I



F A



$$\text{♩} = \text{♩} + ? \quad \text{♩} = ? + \text{♩}$$



2–3-darslar

QOMUSIMSAN – FAXRIMSAN


Mamlakatimiz Konstitutsiyasi – davlatimizning bosh qomusi. Unda Vatanimizda yashayotgan insonlarning asosiy huquq, majburiyat va erkinliklari ifoda etilgan.





CHAMANDAGUL



O'zbek xalq kuyi



Ikki guruhga bo'linib ijro eting:



QADIM TURON



P. Mo'min she'ri

Uch, Humo qush,
Parvozi xush.
Osmonimda,
Makonimda.

Naqarot:

Keng Turkiston
Menga makon.
El – qadron,
O'zbekiston.

Samosi sof,
Chaqnar oftob.
Bag'ri kengdir,
Do'sti tengdir.

Naqarot.

Aytay chindan,
Baxtim sendan.
Sen doimo
Bor bo'l, Humo!

Naqarot.

N. Norxo'jayev musiqasi








Musical notation staff with 10 black dots representing notes.

Music staff with a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a time signature of 2/4. It contains 10 musical notes corresponding to the dots above.

SOL



LYA



$$\text{♩} = \text{♪} + ? \quad \text{♩} = ? + \text{♪} + \text{♪}$$



4–5-darslar

JO'RNAVOZLIK

Ikki cholg'u sozida birgalikda kuy ijro etilishiga jo'rnavozlik deyiladi. Jo'rnavozlar bir-birlarini tinglab, asar ijro etadilar.



Yakkanavoz va jo'rnavoz ijrochilikda qanday farq hamda o'xshashlikni ko'ryapsiz?

YOMG'IR



T. Ubaydullo she'ri

Shivir-shivir shivirlab,
Yomg'ir yog'di shitirlab.
Bo'g'otlarga berkindi
Sho'x chumchuqlar pitirlab.

N. Norxo'jayev musiqasi

Naqarot:

O'ynab-o'ynab tushar suv,
Kuylab-kuylab tushar suv.
Yer bag'rini to'ldirib,
Quvnab-quvnab tushar suv.



Yomg'ir yog'ar paqirlab,
Chuchvarasi vaqirlab.
Har tomchi qut, baraka,
Yashnaydi dala, qirlar.

Naqarot.





 Shi-vir, shi-vir, shi-vir - lab, yom-g'ir yog'-di shi-tir - lab,


 Bo'g'ot-lar-ga ber-kin-di sho'x chumchuq-lar pi - tir - lab.



DO₂



$$\text{♩} = \text{♪} + ?$$





XONANDALIK VA SOZANDALIK

Xonandalik qo'shiq ijrochiligi bilan bog'liq musiqiy kasbdir. Xonandalar qo'shiqlarni ovozda, cholg'u jo'rligida yoki cholg'u jo'rligisiz ijro etadilar.

Sozandalik esa kuy ijrochiligi bilan bog'liq musiqiy kasbdir. Sozandalar kuylarni turli cholg'ularda ijro etadilar.



? Xonanda bilan sozanda ijrosini tinglab farqlang.



? “Dangasa” qo'shig'i ritmini nota matni bilan taqqoslang.

ARCHA BAYRAMI

A. Rahmat she'ri

I. Akbarov musiqasi

Shamol oppoq qorlarni
Quvib-quvib xo‘p yeldi.
Bizga uzoq o‘rmondan
Archa mehmonga keldi.

Qorbobomiz ko‘p yaxshi,
Bizga sovg‘a keltirar.
Chiroqlarning nurida
O‘yinchoqlar yaltirar.



NOTALARING GURUHLANISHI

Nota yozuvida nimchorak notalarini yozish qulay bo‘lishi uchun ular bitta chiziq bilan birlashtiriladi. Nimchorak notalar ikkitadan, ayrim hollarda to‘rttadan birlashadi. Buning uchun ularning bayroqchalari bir biriga ulanadi.



Berilgan mashqdagi chorak notalarini “bak”, nimchorak notalarini esa “bum” bo‘g‘inlari bilan aytib, jo‘r bo‘lamiz:




bum ba - ka, bum, bum, ba - ka, ba - ka, bum

ba - ka, bum, ba - ka, bum, ba - ka, ba - ka, bum.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Kuy nima? Kuy qanday harakatlanishi mumkin?
2. Berilgan nuqtalarning harakatiga qarab ular siz o'rgangan qaysi qo'shiqni ifoda etishini toping.



3. Quyidagilardan qaysi biri chorak nota?



4. $\text{♩} + ? = \text{○}$


5. $\text{♪} + ? = \text{♪}$




6. Bularidan qaysi biri nay?




8. Bulardan qaysi biri tanbur?



9. Tanbur bilan g'ijjak o'ttasida qanday farq bor?



10. Bulardan qaysi biri “Dangasa” kuyining ifodasi?






3-BOB MUSIQA SAVODIGA SAYOHAT

TAKT VA TAKT CHIZIG‘I

Kuy taktlarga bo‘linadi.



Takt kuchli va kuchsiz hissalardan tashkil topadi.


Kuchli hissa oldidan tikka chiziq qo‘yiladi.



Bu chiziq **takt chizig‘i** deb ataladi.

ОТ О'YINI

D.Omonullayeva musiqasi





BOBOM – QAHRAMON

A. Haydarov she'ri va musiqasi

Bobom – qahramon,
Urushda bo‘lgan.
Yovlar ustidan
G‘alaba qilgan.

Naqarot:




Qahramon, qahramon,
Bobom – qahramon.
Bobojon, doimo
Bo‘ling sog‘-omon.

Jang-u jadalta
Quchgan zafarlar.
Ko‘ksida to‘la
Orden-medallar.

Naqarot.

E’zozda doim
Bobomday mardlar.
Elin asragan
Botir askarlar.

Naqarot.



3–4-darslar

O'LCHOV

Musiqada o'lchov taktning sig'imini, ya'ni bitta taktga nechta nota joylashishini ko'rsatadi.

U biri ikkinchisining ustida joylashgan ikkita raqam ko'rinishida yoziladi.



Quyidagi namunada ana shunday yozuvlarni ko'ri-shingiz mumkin:

2 3 4
4 4 4




taktdagi hissa (ikki)

**2
4** har bir hissaning uzunligi (chorak)

Musiqa asarining o'lchovi musiqiy kalitdan keyin qo'yiladi.




SANASHNI O'RGANAMIZ




QASHQARCHA

O'zbek xalq kuyi



?! "Qashqarcha" kuyi ritmini ikki guruhgaga bo'linib ijro eting.



UXLAB TURDIM

I. Muslim she'ri

Oyijonim,
Bugun yaxshi
Uxlab turdim.

Juda qiziq,
Juda shirin
Tushlar ko'rdim.

Naqarot:

Sizga, sizga assalom!
Hammangizga assalom!

F. Nazarov musiqasi

Yumshoq yostiq,
Issiq ko'rpa –
Rohat, rohat.

O'z vaqtida
Uyg'onishni
Qildim odat.

! “Uxlab turdim” qo'shig'ining ritmik tasvirini doirachalar bilan ifodalaymiz.

O - yi - jo - nim, bu - gun yax - shi ux - lab tur- dim

Doirachalarni turli uzunlikdagi notalar bilan almashtiramiz.


O - yi - jo - nim, bu - gun yax - shi ux - lab tur- dim

Qo'shiqni notaga qarab kuylaymiz.

O - yi - jo - nim, bu - gun yax - shi ux - lab tur- dim



5–6-darslar


REPRIZA

Kuyning asosiy qismi
Yana yangraydi takror.
Bu qism chekkasida
Repriza belgisi bor.

D. Omonullayev

Musiqa asarining biror qismi takrorlanishini bildiruvchi belgi “**repriza**” deb ataladi.

Ushbu rasmda qizil hoshiya bilan ajratilgan repriza belgisini ko'rib turibsiz.



Musiqa asarining ushbu ikki nuqtali belgi – repriza belgisi orasidagi qismi takrorlanadi.



Dan- ga -sa bo'l-mang, danga-sa - a.



An-jir qi-ziq-dir o' - zi, lekin bit-ta - dir ko' - zi.



Repriza belgisi bilan takt chizig'i bir-biridan qanday farq qiladi?



VALS

P. Chaykovskiy musiqasi
“Bolalar albomi”dan

Vals juft-juft bo‘lib, tekis aylana harakatlar bilan ijro etiladigan raqs. U asosan katta raqs kechalarida ijro etiladi.





NAVRO'ZIM – SHO'X SOZIM

H. Rahmat she'ri
N. Norxo'jayev musiqasi

Navro'z keldi, Navro'z keldi kulib-kulib,
 Bog'-u dalam, bog'-u dalam gulga to'lib,
 Qushlar sayrar juft-juft bo'lib.


Naqarot:

Navro'zim – o'z so'zim, shod ovozim,
 Shod ovozim, sho'x sozim.

Navro'zimni sevar jahon, sevar jahon,
 Ona diyor, hur guliston, hur guliston,
 Kundan kunga zavqli davron.

Naqarot:

Navro'zim – o'z so'zim, shod ovozim,
 Shod ovozim, sho'x sozim.



Qo'shiq ritmini nota matni bilan taqqoslang.



Nav-ro'z kel - di, nav- ro'z kel - di ku- lib ku - lib



LAD: MAJOR VA MINOR

Musiqiy tovushlar o'zaro kelishib yashaydilar. Har birining o'z o'rni va joyi bor. Musiqiy lad – bu o'zaro kelishuvda, ya'ni muayyan ketma-ketlikda joylashgan tovushlar guruhi.

Musiqada ladlar juda ko'p. Ularning orasida eng asosiysi ikkita: major va minor.

Major – bu yorqin jaranglagan musiqa, quvnoqlik, tetiklik va xursandchilik kuylarining asosi.

Minor – ma'yus va o'ychan kuylarning asosi.



Major ladidagi kuy parchasini tinglang:

Minor ladidagi kuy parchasini tinglang:

MAJOR VA MINOR

Musiqiy mamlakatda
Bor ikki aka-uka.

Major – quvnoq va shodon,
Tetik, bardam, sho'x-xandon.
Ikkinchchi bola – **Minor**,
U g'amgin tovushqator.
Ma'yus qo'shiq aytadi,
Bizni o'yga soladi.

Major va **Minor** birdam,
Ahil yashashar har dam.






TOREADOR MARSHI

J. Bize musiqasi

Marsh – saf tortib yurishda ijro etiladigan tantanali musiqiy asar.



Turgan joyingizda kuyga mos qadam tashlang.




ZAG'IZG'ON**P. Mo'min** she'ri**D. Omonullayeva** musiqasi

Zag'izg'on, zag'izg'on,
Uchag'on zag'izg'on.
Choponi oladir,
Qarg'aga xoladir.

Tomlarda qaqillar,
Tomog'i taqillar.
Ko'zlari alanglar,
Och qolsa, yalanglar.

Aytayin to'g'risin,
U sovun o'g'risi.
Zag'izg'on, zag'izg'on,
Qochag'on zag'izg'on.



MUSIQALI REBUSLAR

Rebuslar sizga bir olam zavq hadya qiluvchi, fikrlashga o'rgatuvchi, lug'at boyligini oshiruvchi, diqqatliroq bo'lishga undovchi o'yin turidir. Musiqiy rebuslarni yechish uchun shunchaki **do, re, mi, fa, sol, lya, si** notalarining nota yo'lida joylashuvini bilish kifoya.

Notalarini aniqlang va yashirilgan so'zlarni topib, musiqali rebusni to'g'ri o'qing.

– birinchi nota z

– buslar yecha z.

– yovlaydi mushuk,

– zoga ucha z.

– va masala,

– yangraydi ashula.

– yettinchi nota z,

Yana ga qayta z.

YUGURISH



S. Abramova musiqasi

Kuy harakati aks ettirilgan quyidagi namunalardan qaysi biri S. Abramovaning “Yugurish” kuyiga mos keladi?

A musical staff with four rows of colored dots representing notes. The top row is blue, the second is orange, the third is green, and the bottom is pink. Below the staff are icons of a hand clapping and a small pot with a spoon.

The musical staff consists of seven measures. Measure 1: Blue notes (quarter note, eighth note, eighth note). Measure 2: Orange notes (eighth note, eighth note, eighth note). Measure 3: Green notes (eighth note, eighth note, eighth note). Measure 4: Pink notes (eighth note, eighth note, eighth note). Measure 5: Blue notes (eighth note, eighth note, eighth note). Measure 6: Orange notes (eighth note, eighth note, eighth note). Measure 7: Green notes (eighth note, eighth note, eighth note).

ISMALOQ

P. Mo'min she'ri


D. Omonullayeva musiqasi

Ismaloq zo'r o'simlik,
Bargchalari ko'rimlik.
Bizning uyda ismaloq
O'sib yotar shapaloq.

Barglarini avaylab
Terib berdik ataylab.
Somsa qilsalar oyim,
Maza qilamiz doim.



"Ismaloq" kuyining ritmik ifodasini nota matni bilan taqqoslang.
Notaga qarab kuylang.



1–2-darslar

4-BOB

BOLALAR BASTAKOR VA KOMPOZITORLARI



Shermat Yormatov

Bolalarning sevimli bastakori Shermat Yormatov 1939-yili Farg'ona viloyatida tug'ilgan. Ko'p yillardan beri yosh qo'shiqsevarlarga san'at sirlarini o'rgatib kelmoqda. Ustoz bastakor tashkil qilgan "Bulbulcha" bolalar ansamblini nafaqat respublikada, balki ko'plab chet mamlakatlarda o'zbek bolalar qo'shiqchilik san'atini targ'ib qilmoqda. Shermat Yormatov "Oymomojon rom bo'ldi", "G'ildiragim", "Sog'lom avlod qo'shig'i", "Oy bo'lamiz, toy bo'lamiz" kabi o'nlab qo'shiqlarni yaratgan.



O'zbekiston xalq artisti Shermat Yormatov bolalar qo'shiqchiligidagi rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun "Sog'lom avlod" ordeni bilan mukofotlangan.

O'YNADIK, HECH TO'YMA DIK

P. Mo'min she'ri
Sh. Yormatov musiqasi

Bag'ri ko'm-ko'k dalalar,
Gullari ko'p dalalar.
Qarang, juda keng ekan,
Bir olamga teng ekan.

Naqarot:
Dalalarda o'ynadik,
Hech o'yinga to'ymadik.

Oftob bizni ko'rardi,
O'ynaymi, deb so'rardi.
Shamol asta yelardi,
Davramizga kelardi.

Naqarot.



2/4

Bag'-ri ko'm-ko'k da- la- lar, da - la - lar.



SOG'LOM AVLOD QO'SHIG'I

T. Bahromov she'ri

Sh. Yormatov musiqasi

Quyosh bo'lsin, oy bo'lsin,
O'zbekiston boy bo'lsin.
Menga atlas, ukamga
Gijinglagan toy bo'lsin.

O'saversin bo'yimiz,
Tenglik – orzu-o'yimiz.
Bu dunyoda bor bo'lsin
O'zbekiston – uyimiz.

Naqarot:

Dadam yuzga kirsinlar,
Ayam yuzga kirsinlar.
Bizlar yuzga kirganda
Yonimizda yursinlar.

Naqarot.

? “Sog'lom avlod qo'shig'i” ritmik tasvirini nota matni bilan taqqoslang.

Qu- yo(o)sh bo'l - sin, oy bo'l - si (i)n,
O'z - be- kis - to (o)n boy bo' (o')l - sin.



Qu- yo (o)sh bo'l - sin, oy bo'l - si (i)n,
O'z - be- kis - to (o)n boy bo' - (o')l - sin.



Nadim Norxo'jayev

Bolalarning sevimli kompozitori Nadim Norxo'jayev 1947-yili Toshkent shahrida ziyolilar oиласида tug'ilgan. U bolalar qo'shiqchilik san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan kompozitorlardan biridir. Zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda bolalar uchun 200 dan ortiq qo'shiqlar yaratgan.

Nadim Norxo'jayevning "Qor", "Navro'zim – sho'x sozim", "Chamandagi gullarmiz", "Yaxshi bola", "Gullar – manim kulganim", "O'zbegimdan aylanay", "Hakkalar" kabi yuzlab qo'shiqlarini bolalar sevib kuylaydilar.

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston davlat konservatoriysi professori N. Norxo'jayev o'zining jozibali musiqiy asarlari, ayniqsa, estrada va bolalar uchun yaratgan qo'shiqlari bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan.



CHINNIGUL

Qambar Ota she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

Yonib turgan chinnigul,
Yoqtiradi har ko'ngil.
Senga shaydo har bir dil,
Chinnigul, chinnigul.

Gul tanlagan ko'zlarga,
Dildan chiqqan so'zlarga,
Kulib chiqqan yuzlarga
Yarashiqsan, chinnigul.

Oymisan yo kunmi, gul?
Mehring elga chinmi, gul?
Uch-to'rt dona chinnigul
Quvonchlarga ochar yo'l.

Sen eng nodir sovg'asan,
Go'zallikda tanhosan.
Olqishlarga ravosan,
Ardoqligim, chinnigul.

Yo-nib tur-gan chin-ni-i gu-u-l

HAKKALAR

N. Orifjonov she'ri

Ola qanot hakkalar,
Shoxdan shoxga qo'nasiz.
“Chig'ir-chig'lab” nimanidir
Izlab topgan bo'lasiz.



Teraklarning uchidan
Sizga boqar polapon.
Qamishzorlar ichidan
Unga qarab qolaman.

Shoshqaloqlab tumshug'in
Siz tomonga tutadi.
Hali yosh, yo'l-yo'rig'in
Topmay, najot kutadi.

Uni boqish farzingiz,
Yurmang muncha hakkalab.
Boshqalardan fargingiz –
Yengiltaksiz, hakkalar.

N. Norxo'jayev musiqasi





? “Hakkalar” qo’shig’ini bolalar cholg’ulari jo’rligida ifodali kuylang.

Berilgan namunadagi eng pastki va eng yuqori tovushlarni aniqlang.

O - la qa - no - ot hak - ka - la - ar,
Shox - da - an shox - ga qo' - na - siz.

Berilgan mashqdagi chorak va yarim notalarni “bum”, nimchorak notalarni esa “bak” bo‘g‘inlari bilan aytib, chapak yoki bolalar cholg’ularida jo‘r bo‘ling.

Bum bum, ba - ka, bum, ba - ka, ba - ka, bum



Dilorom Omonullayeva

Bolalarning sevimli kompozitori Dilorom Omonullayeva 1959-yili Toshkent shahrida musiqachilar oilasida tug'ilgan.

Serqirra ijodining ko'p qismi bolalarga bag'ishlangan. Dilorom Omonullayevaning "Alifbe qo'shig'i", "Humo qushim", "Aziz bo'ston – O'zbekiston", "O'zbek elim – bek elim", "Diloromning qo'shig'i", "Buvijon" kabi ko'plab rang-barang qo'shiqlari hamda "Ot o'yini", "Qo'g'irchoqlar bilan raqs" kabi ko'plab bolalar uchun yaratilgan kuylari ham o'quvchi-yoshlar orasida mashhurdir.

Dilorom Omonullayeva O'zbekiston musiqa madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi" faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.



QO‘G‘IRCHOQLAR BILAN RAQS

D. Omonullayeva musiqasi

“Qo‘g‘irchoqlar bilan raqs” kuyini diqqat bilan tinglab, unga mos raqs harakatlarini o‘ylab toping. Kuyni notalarga qarab tinglang.



BUVIJON

Y. Suyunov she'ri

Menga tengsiz mehri bor,
So'zlarida sehri bor.
Ertak aytib tolmaydi,
Erkalatib hormaydi.

Naqarot:

Buvijonim, buvijon,
Mehribonim – buvijon.
Onaginam onasi,
Sho'x zabonim – buvijon!

Ko'rolmasa bir kuni,
Uxlay olmaydi tuni.
Ko'ngli sog'inchga to'lib,
Izlar parvona bo'lib.

Baxtimga omon yuring,
Xush-xandon davron suring.
Ko'zingiz namlanmasin,
Dilingiz g'amlanmasin.

Naqarot.



Ikki guruhga bo'linib, ijro eting.
Notaga qarab kuylang.




Music notation for two groups. The first group's notes are aligned with the lyrics "Bu- vi - jo - nim, bu - vi - jon," and the second group's notes are aligned with "Meh- ri- bo- nim bu - vi - jon."



7–8-darslar

MUSIQA IJODKORLARI

Rasmga diqqat bilan qarang. Unda shoir, kompozitor, xonanda, sozanda kabi ijodkorlar tasvirlangan. Havodagi sharlarda esa ijodkorlarning asosiy ijod vositalarining nomlari yozilgan.



? Qaysi sharni qaysi ijodkorga bergan bo'lardingiz?
Nima uchun?



KAPALAK VA KAMALAK

N. Narzullayev she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

Gulga qo'nib kapalak,
Qanotini o'ynatar.
Ko'kda chaqnab kamalak,
Yetti rangda raqs etar.

Naqarot:

Kapalakjon, kapalak,
Sen ham menday sho'xmisan?
Uyda yolg'iz o'tirib,
Zerikishga yo'qmisan?



HANDALAK



P. Mo'min she'ri

Naqarot:

Handalak, handalak
Pishgan edi.
Taqraldi, taqraldi
Har yon hidi.

Egnida

Beqasam to'n,
Tikilibdi
Juda jo'n.

D. Omonullayeva musiqasi

Har bittamiz

Pushtadan
Olib chiqdik
Uchtadan.

Naqarot.

Bittadan

So'yib yedik.
Rosayam
To'yib yedik.




MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qaysi namunada 2/4 o'Ichovi to'g'ri qo'yilgan?



1)

2)

2. ?



5. Berilgan namunalardan qaysi biri S. Abramovaning "Yugurish" kuyiga mos keladi?



6. “Uxlab turdim” qo’shig‘i ritmini chapak yoki bolalar cholg‘ularida ifoda eting.




7. Quyida qaysi qo’shiq ritmi berilgan?



8. Suratdagi bastakorlar haqida so’zlab bering.



9. Mashq – bilimning onasi,
Top, bu notalar qaysi?



Musiqa 2-sinf [Matn]: darslik / N.Norxo'jayev [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021. – 80 b.

ISBN 978-9943-7300-3-8

UO'K 78(075.3)
KBK 74.268.53

O'quv nashri

**Nadim Norxo'jayev, Shoxista Norxo'jayeva,
Dilnoza Toshmuhamedova**

MUSIQA

*Umumiy o'rta ta'lif maktablarining
2-sinfi uchun darslik*

Rassom *Umid Sulaymonov*
Muhammadirov *Xurshidbek Ibrohimov*
Badiiy muhammadirov *Sarvar Farmonov*
Texnik muhammadirov *Akmal Sulaymonov*
Dizayner *Dilmurod Mulla-Axunov*
Sahifalovchi *Alimardon Aqilov*
Musahhih *Mohinur Ablahakimova*

Bosishga 17.08.2021-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$.
Arial garniturasi. Kegli 16 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 9,30. Nashriyot-hisob tabog'i 8,25.
Adadi —— nusxa. Buyurtma № ____.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

Nº	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.